



Bexruz SAFAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: safarovbekhruz02@gmail.com

O'zMU professori, g.f.d Z.Tojiyeva taqrizi asosida

KO'KDALA TUMANI AHOLISINING XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA BANDLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati hamda Ko'kdala tumanida aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati, uning aholi bandligi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda 2022–2024-yillar davrida xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi, tumanlar kesimidagi farqlar va hududlararo nomutanosibliklar o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyat miqyosida xizmatlar sohasi jadal rivojlanib, 2024-yilda 43 221,2 mlrd so'mlik hajmga yetgan bo'lsa-da, ayrim tumanlarda, xususan, Ko'kdala tumanida bu jarayon sust kechmoqda. Hududda iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi, aholining to'lov qobiliyati pastligi va xususiy sektor faolligining yetarli emasligi o'sish sur'atlarini cheklab turuvchi asosiy omillar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, xizmatlar tarmog'ining kengayishi mintaqa aholisining bandligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim omil ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, xizmat ko'rsatish sohasi, Ko'kdala tumani, iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligi, hududiy nomutanosiblik, mehnat resurslari, infratuzilma.

EMPLOYMENT FEATURES OF THE POPULATION OF KOKDALA DISTRICT IN THE SERVICE SECTOR

Annotation

This article analyzes the development status of the service sector in the Kashkadarya region and Kokdala district, its impact on employment and socio-economic processes. The study examined the dynamics of growth in the volume of services in the period 2022-2024, differences between districts, and interregional disparities. The analysis shows that although the service sector is developing rapidly at the regional level, reaching a volume of 43,221.2 billion soums in 2024, this process is slowing down in some districts, in particular in Kokdala district. The underdevelopment of economic infrastructure in the region, low solvency of the population, and insufficient private sector activity are noted as the main factors limiting growth rates. At the same time, it was emphasized that the expansion of the service network is an important factor in ensuring employment of the region's population and accelerating socio-economic development.

Keywords: Kashkadarya region, service sector, Kokdala district, economic development, population employment, territorial imbalance, labor resources, infrastructure.

ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ КОКДАЛИНСКОГО РАЙОНА В СФЕРЕ УСЛУГ

Аннотация

В статье анализируется состояние развития сферы услуг в Кашкадарьинской области и Кокдалинском районе, ее влияние на занятость и социально-экономические процессы. В исследовании рассмотрена динамика роста объема услуг в период 2022-2024 годов, различия между районами и межрегиональные диспропорции. Анализ показывает, что, хотя сфера услуг развивается быстрыми темпами на региональном уровне, достигнув объема 43 221,2 млрд. сумов в 2024 году, в некоторых районах, в частности в Кокдалинском районе, этот процесс замедляется. В качестве основных факторов, сдерживающих темпы роста, отмечены неразвитость экономической инфраструктуры региона, низкая платежеспособность населения и недостаточная активность частного сектора. При этом подчеркивается, что расширение сети услуг является важным фактором обеспечения занятости населения региона и ускорения социально-экономического развития.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, сфера услуг, Кокдалинский район, экономическое развитие, занятость населения, территориальный дисбаланс, трудовые ресурсы, инфраструктура.

Kirish. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish o'zaro bog'liq, uyg'unlashgan bo'lib, uning mazmun-mohiyatini alohida talqin qilib bo'lmaydi. Har qanday iqtisodiy rivojlanishning pirovard maqsadi ijtimoiy manfaatlardir. Ijtimoiy sohalarining iqtisodiyot bilan bevosita va bilvosita aloqadorligi ularni o'zaro muvofiqlashtirilgan tarzda, ijtimoiy masalalarga ustuvorlik bergan holda rivojlantirishni taqozo etadi. Shuning uchun "iqtisodiy-ijtimoiy" emas, odatda "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish" deb yuritiladi, ya'ni iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadi ijtimoiy masalalarga yo'naltirilganligidadir.

Shu o'rinda ijtimoiy tarmoqlar (savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, turli xil xizmatlar va b.) bilan *ijtimoiy infratuzilma* o'rnatidagi farqlarni unutmaslik lozim. Infratuzilma, ya'ni ichki tuzilma ijtimoiy sohalar rivojlanishi va hududiy tashkil etishning negizi hisoblanadi, biroq ijtimoiy sohalar bilan ma'nodosh emas. Sababi, infratuzilma bevosita moddiy va ma'naviy boylik yaratmaydi, balki ular uchun sharoit muhayyo qiladi [1].

Ijtimoiy sohalar orasida savdo, pullik xizmatlar muhim o'rin tutadi. O'z navbatida, mazkur yo'nalishlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati katta va bu ko'rsatkichlar tobora o'sib bormoqda. Biroq, keltirilgan tahlillar ko'rilayotgan sohalar geografiyasining haqiqiy holatini, uning mohiyat va xususiyatini to'liq izohlab bermoqda. Bu borada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar va indekslar katta ahamiyatga ega [2].

Jamiatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini bir-birlari bilan uzviy bog'langan bo'lsa, bir tomondan jamiyatning iqtisodiy quvvati ijtimoiy sohani rivojlanishini tezlashtirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan kishilarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashida iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida har ikkala soha mustaqil ravishda ko'pgina ichki va tashqi omillar ta'sirida rivojlanadi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashqi omillariga, moliyaviy mablag'lar miqdori, moddiy texnika baza, kredit, rejalashtirish va boshqarish, malakali kadrlar tayyorlash, ijtimoiy-demografik vaziyat, aholining ijtimoiy talab va ehtiyojlarini qondirish kabilari kiradi. Ichki omillarga esa moddiy rag'batlantirish va xo'jalik hisobi, ishlab-chiqarish va mehnatni tashkil qilish usullari, aholiga xizmat ko'rsatish shakllari va boshqalar kiradi. Bu omillarning barchasi aholining ijtimoiy ma'naviy va madaniy-maishiy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga yo'naltirilgan.

Sh.Qurbonov (2017) O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar asosan ikkita yo'nalishda evolyutsion tarzda rivojlanib borganligini ta'kidlab, mehnat resurslari geografiyasi va bandlik muammolarini Ijtimoiy (sotsial) geografik tadqiqotlar tarkibiga kiritadi [4].

Asosiy qism. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi aholi ehtiyojlarining o'sib borishi bilan bevosita aloqador. Aholining ehtiyojlari esa, birinchi navbatda mahalliy aholining urf-odatlarini va an'analari bilan bog'liq. Demak, mintaqaning ijtimoiy-demografik xususiyatlari xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlanishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Har bir mintaqada aholisi bir-biridan o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlarini, demografik xususiyatlari bilan farq qiladi.

Bularning hammasi birgalikda mintaqada aholisining ijtimoiy-demografik xususiyatlarini belgilaydi. Bu xususiyatlar mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning o'sishi, migratsiya (ko'chib chiqish), zichlik, aholi sonining o'sishi, uning tarkibi va yosh tuzilmasi, mehnat resurslari va ularning bandligi kabi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi.

Aholining ish bilan bandlik darajasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartidir. U iqtisodiy tizim faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini o'zida mujassamlaydi. Aholining bandlik darajasi jamiyat mehnat faoliyatining umumlashgan ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu kabi ko'rsatkich turli davlat va hududlarda turlicha bo'lib, o'z navbatida u yoki bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini ham belgilab beradi. Aholining bandlik darajasi mehnat resurslaridan foydalanishning miqdor va sifat darajasi, mamlakatdagi mavjud iqtisodiy vaziyatni, aholining turmush darajasi va boshqa ko'rsatkichlarni tavsiflaydi. Demak, aholi bandligi aholi turmush tarzi va farovonligini oshirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, olinadigan ish haqi va daromad miqdorini, binobarin aholini o'z-o'zini ijtimoiy himoyalash darajasini ham belgilaydi [3].

Mehnat bozoridagi talablar asosida kasbiy bilimlarga o'qitish vazirlikning ustuvor vazifasiga aylandi. Vazirlik tasarrufida 16 ta "Ishga marhamat" band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi "Monomarkaz", 59 ta tuman va shahar kasb-hunarga o'qitish markazlari, 136 ta mahallada kasb-hunarga o'qitish maskanlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 54 turdagi kasblar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillar bo'yicha 2021-yilda 115,4 ming nafar ishsizlar kasb-hunarga o'qishga jalb etildi. Kasb-hunarga o'qishga jalb etilganlarning asosiy qismi xotin-qizlar (68,4 foiz), yoshlar (54,4 foiz) ulushiga to'g'ri keldi. Kasb-hunarga o'qitishga jalb etilganlarning 69,9 ming nafari (60,6%) sanoat va xizmat ko'rsatish yo'nalishida, 23 ming nafari (19,9%) qurilish, 2,4 ming nafari (2,1%) agrotexnologiyalar, 9,2 ming nafari (8,0%) "IT" sohasi kasblari va 10,9 ming nafari (9,4%) "Usta-shogird" an'anasi asosida hunarmandchilik kasblariga yo'naltirildi.

Qashqadaryo viloyatida ko'rsatilayotgan xizmatlarning hajmida tumanlarning ulushi quyidagicha: 6,1% dan yuqori bo'lgan hududlarda Qarshi shahri, Shahrisabz shahri, Koson, Kitob tumanlari, 5,1-6,0 % gacha G'uzor, Qarshi tumani, Chiroqchi va Yakkabog' tumanlari, 4,5-5,0 % ga Shahrisabz tumani, Qamashi, Dehqonobod va Nishon tumanlari 4,5 % dan kam Mirishkor, Muborak, Kasbi tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi viloyatlarning o'sib borayotgan mehnatga layoqatli aholisini ish bilan bandligini ta'minlash imkonini beradi. So'nggi yillarda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining xizmatlar sektori sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. 2022-yilda viloyatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 15 967,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 19 610,2 mlrd so'mga yetgan, 2024-yilga kelib esa 43 221,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Shu orqali so'nggi ikki yilda xizmatlar hajmi qariyb 2,7 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2024-yilda kuzatilgan 120 foizdan ortiq o'sish sur'ati viloyatda xizmatlar sohasi infratuzilmasining kengaygani, xususi tadbirkorlik faollashgani hamda yangi investitsion loyihalar amalga oshirilganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sohasi tobora muhim o'rin egallab bormoqda. 2022–2024-yillar oralig'ida ushbu tarmoqda keskin o'sish kuzatildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda viloyatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 15 967,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 19 610,2 mlrd so'mga yetgan. 2024-yilda esa 43 221,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 2,2 barobar, 2022-yilga nisbatan esa 2,7 barobar oshgan.

Bu natijalar Qashqadaryo viloyatida so'nggi yillarda xizmatlar tarmog'ining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2024-yilda o'sish sur'atining 120 foizdan ortiq bo'lishi iqtisodiy islohotlar, xususi sektor faolligining kuchayishi, savdo va transport xizmatlari hajmining kengaygani, shuningdek, infratuzilma loyihalarining amalga oshirilgani bilan izohlanadi.

Viloyatning yirik iqtisodiy markazlari – Qarshi shahri, Shahrisabz shahri, Qarshi, Kitob, Dehqonobod va Qamashi tumanlari xizmatlar hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bu hududlarda xizmatlar tarmog'ining o'sish sur'atlari 2022–2024-yillar mobaynida 50–60 foizni tashkil etgan. Ayniqsa Qarshi shahri 2024-yilda 6 444,8 mlrd so'mlik xizmatlar hajmiga erishgan bo'lib, bu viloyat bo'yicha eng yuqori natijadir.

Tuman va shaharlar kesimida qaralganda, Qarshi shahri xizmatlar hajmi bo'yicha yetakchi hisoblanadi. 2022-yilda bu ko'rsatkich 4 001,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 6 444,8 mlrd so'mga yetgan. Shuningdek, Shahrisabz shahri, Qarshi tumani, Kitob, Dehqonobod va Qamashi tumanlarida ham xizmatlar hajmining yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (50–60 foiz atrofida).

Biroq ayrim tumanlarda, jumladan Ko'kdala, Chiroqchi va Shahrisabz tumanlarida o'sish sur'atlari nisbatan past (41–45 foiz atrofida) bo'lib, bu hududlarda xizmat ko'rsatish infratuzilmasi va iqtisodiy faollik darajasi hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd so'm


Hududlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Qashqadaryo viloyati	15967,7	19610,2	43221,2
Qarshi sh.	4001,4	4793,0	6444,8
Shahrisabz sh.	763,9	954,2	1152,4
G'uzor	582,9	706,1	823,3
Dehqonobod	524,1	673,0	829,2

Qamashi	1130,1	1379,2	1724,2
Qarshi	1138,2	1465,5	1804,5
Koson	878,3	1050,5	1341,0
Kitob	1164,8	1492,8	1838,0
Mirishkor	768,8	946,0	1184,7
Muborak	866,8	1053,0	1306,5
Nishon	730,4	944,4	1121,5
Kasbi	841,8	1061,8	1295,1
Ko'kdala	291,3	356,3	421,8
Chiroqchi	536,8	668,3	776,6
Shahrisabz	937,4	1092,1	1323,4
Yakkabog'	810,7	974,1	1174,8

Ma'lumotlar qashstat.uz saytidan olindi.

Ko'kdala tumanida 2022-yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 291,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 356,3 mlrd so'm, 2024-yilda esa 421,8 mlrd so'mni tashkil etdi. So'nggi ikki yilda xizmatlar hajmi 44,8 foizga oshgan, bu esa viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan (taxminan 50–60 foiz) pastdir.

Xizmalar hajmidagi dinamik o'zgarishlarga e'tibor qaratilsa, tumanda aholiga xizmat ko'rsatish hajmi 2022–2023-yillarda o'sish 22,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023–2024-yillarda bu ko'rsatkich 18,4 foizgacha pasaygan. Bu holat tuman iqtisodiyotida xizmatlar sektori o'sishi barqaror, ammo sust kechayotganini bildiradi.



Ma'lumotlar qashstat.uz saytidan olindi.

Biroq viloyat ichida o'sish sur'atlari notekis kechmoqda. Ayrim tumanlarda, xususan, Ko'kdala, Chiroqchi va Shahrisabz (tuman) hududlarida bu ko'rsatkichlar nisbatan past (41–45 foiz atrofida). Bu holat viloyat ichidagi iqtisodiy farqlanishning saqlanib qolayotganini, xizmatlar sektori rivoji ko'proq markaziy hududlarda to'planganini ko'rsatadi.

Ko'kdala tumani misolida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tuman hududida xizmatlar sohasi barqaror, ammo sust sur'atda rivojlanmoqda. 2022-yilda tumanda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 291,3 mlrd so'mni tashkil etgan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 356,3 mlrd so'mga, 2024-yilda esa 421,8 mlrd so'mga yetgan. Shu tariqa 2022–2024-yillar oralig'ida umumiy o'sish 44,8 foizni tashkil etgan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Ko'kdala tumanida o'sish sur'ati viloyat o'rtacha darajasidan past. 2022–2023-yillarda o'sish 22,3 foiz, 2023–2024-yillarda esa 18,4 foiz bo'lgan. Bu ko'rsatkichlarning pasayib borishi iqtisodiy faollikning yetarli darajada oshmaganini bildiradi. Ko'kdala tumanida 2022–2024-yillar davomida xizmatlar hajmi 291,3 mlrd so'mdan 421,8 mlrd so'mgacha oshgan bo'lsa-da, bu o'sish viloyat o'rtacha darajasidan past (44,8 foiz). Bu holat tuman iqtisodiyotida xizmatlar sohasi infratuzilmasining sust rivojlanganligi, xususiyl tadbirkorlik faoliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, xizmatlar tarmog'ining yanada rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi: - mahalliy infratuzilmani (yo'l, aloqa, transport va savdo tizimini) rivojlantirish; -kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; -turizm, ta'lim, axborot texnologiyalari kabi xizmat tarmoqlarini kengaytirish; -aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali ichki talabni kuchaytirish.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida Qashqadaryo viloyati, xususan, Ko'kdala tumanida xizmatlar sohasi barqaror rivojlanib, hududiy iqtisodiy o'sishning muvozanatini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa. Tahlil natijalari Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi so'nggi yillarda barqaror va tez sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2022–2024-yillar oralig'ida xizmatlar hajmi 2,7 barobarga oshgani, ayniqsa 2024-yilda o'sishning 120 foizdan oshgani viloyat iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlarini ifodalaydi. Viloyat markazlari - Qarshi va Shahrisabz shaharlarida xizmatlar tarmog'i yuqori darajada rivojlanayotgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, xususan, Ko'kdala, Chiroqchi va Shahrisabz (tuman) hududlarida o'sish sur'atlari nisbatan pastligicha qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Soliyev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari. – T., 1995.
2. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) / Darslik. – T.: Universitet, 2014. – 404 b.
3. Qodirov R.B. Aholi bandligi va uning mintaqaviy xususiyatlari // O'zbekiston Yevrosiyo makonida: geografiya, geoiqtisodiyot, geoeologiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T., 2017. – B. 213-216.
4. Qurbonov Sh. Qishloq tumanlarining iqtisodiy salohiyati va ularning ixtisoslashuvi // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 36 - jild. – T., 2010. – B.112-116.
5. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.